

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.09.2020.T.111.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**MAMEDOV RASUL AKIF-OGLI**

**PAST BOSIMLI SUV OQIMLARIGA MOSLASHTIRILGAN  
SAMARADOR MIKRO GIDROELEKTR STANSIYASINI ISHLAB  
CHIQISH**

**05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari  
asosidagi energiya qurilmalari**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2023**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по техническим наукам**

**Contents of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on technical sciences**

**Mamedov Rasul Akif-ogli**

Past bosimli suv oqimlariga moslashtirilgan samarador mikro gidroelektr stansiyasini ishlab chiqish ..... 3

**Мамедов Расул Акиф-огли**

Разработка эффективной микрогидроэлектростанции, адаптированной к низконапорным водотокам..... 25

**Mamedov Rasul Akif-ogli**

Development of an efficient micro-hydro power plant adapted to low-pressure watercourses..... 47

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 51

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.09.2020.T.111.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**MAMEDOV RASUL AKIF-OGLI**

**PAST BOSIMLI SUV OQIMLARIGA MOSLASHTIRILGAN  
SAMARADOR MIKRO GIDROELEKTR STANSIYASINI ISHLAB  
CHIQISH**

**05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari  
asosidagi energiya qurilmalari**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2023**

**Texnika fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/T1636 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (kiei\_info@edu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Sadullayev Nasullo Nematovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Toirov Olimjon Zuvurovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Urishev Bobaraim**  
texnika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”  
Milliy tadqiqot universiteti.**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti huzuridagi PhD.03/30.09.2020.T.111.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil “13” 07 soat 930 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 180100, Qarshi sh., Mustaqillik shoh ko‘chasi, 225 uy. Tel: (75) 224-02-89, faks: (75) 224-13-95 e-mail: [kiei\\_info@edu.uz](mailto:kiei_info@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№13 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 180100, Qarshi shahri., Mustaqillik ko‘chasi, 225-uy. Tel: (75)-224-02-89, faks: (75) 224-13-95 e-mail: [kiei\\_info@edu.uz](mailto:kiei_info@edu.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil “26” 06 kuni tarqatildi.  
(2023 yil “26” 06 dagi № 14 raqamli restr bayonnomasi



**G‘.N.Uzoqov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

**X.A.Davlonov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.f.d., dotsent

**B.Urishev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,

t.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahonda energetika sohasida, jumladan, markazlashgan elektr ta'minotidan uzoqda joylashgan kichik quvvatli lokal iste'molchilar energiya ta'minotining ishonchliligini oshirish, uzluksizligini ta'minlashda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. "Yevropa ittifoqining energetika sohasini rivojlantirish strategiyasida 2020 yildan 2030 yilgacha bo'lgan davrda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish ulushini 20 foizdan 32 foizga oshirish<sup>1</sup>, xususan, kichik quvvatli gidroenergetik qurilmalarning o'rnatilgan quvvatini 171 GWga yetkazish rejalashtirilgan<sup>2</sup>". Bu borada, past bosimli suv oqimlariga moslashtirilgan mikro gidroelektr stansiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda o'zgaruvchan va past bosimli suv oqimlariga moslashtirilgan mikro gidroelektr stansiyalarini ishlab chiqish, energetik, gidrologik va konstruktiv parametrlarini asoslash hamda samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada past bosimli kichik daryo va irrigatsiya kanallariga moslashtirilgan mikro gidroelektr stansiyalarini ishlab chiqish, konstruktiv va ish rejim parametrlarini modellashtirish, suv energiyasidan foydalanish imkoniyatlarini oshirishda gidroenergetik qurilmalarning optimal parametrlarini aniqlash algoritmlarini ishlab chiqish, ularning asosiy energetik parametrlarini asoslash hamda amaliyotga joriy qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamiz chekka hududlaridagi lokal iste'molchilarning energiya ta'minoti tizimida qayta tiklanadigan energiya manbalari qurilmalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, jumladan, kichik daryo va irrigatsiya kanallariga moslashtirilgan mikro gidroelektr stansiyalarni ishlab chiqish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10 dekabrda PQ-44-son qarorida "... yangi quvvatlar tashkil etishni jadallashtirish hamda amaldagi ishlab chiqarish quvvatlarini bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish orqali 2030 yilda respublikadagi gidroelektr stansiyalari quvvatini 3 416 MVt ga yetkazish<sup>3</sup>..." bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish, jumladan, past bosimli suv oqimlarida moslashtirilgan samarador mikro gidroelektr stansiyalarni yaratishning ilmiy-texnik yechimlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 22 avgustdagi PQ-4422-son "Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora tadbirlari to'g'risida"gi, 9 aprel 2021 yildagi PQ-5063-son "O'zbekiston Respublikasida qayta tiklanuvchi va vodorod

<sup>1</sup> International Renewable Energy Agency. URL: // <https://www.irena.org/europe>

<sup>2</sup> Small Hydropower Market (Capacity: 0-10 MW and Above 10 MW) - Global Industry Analysis, Size, Share, Growth, Trends, and Forecast, 2020-2030. URL: // <https://www.transparencymarketresearch.com/small-hydropower-market.html>

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10 dekabrda PQ-44-son «Gidroenergetikani yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori

energetikasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika va fan texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya ishi bo‘yicha tadqiqotlar fan va texnologiyalar rivojlanishining IV “Qayta tiklanuvchan energiya manbalaridan foydalanish usullarini rivojlantirish, nanotexnologiyalar, fotonika va boshqa zamonaviy ilg‘or texnologiyalar asosida qurilmalar va texnologiyalarni yaratish” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Lokal iste‘molchilarning elektr energiyasi ta‘minoti tizimida mikro gidroelektr stansiyalardan foydalanishni rivojlantirish, past bosimli suv oqimlarida ishlovchi mikro gidroelektr stansiyalarni yaratish va samaradorligini oshirishning ilmiy-texnik yechimlarini ishlab chiqish bo‘yicha mashhur olimlar G. Myuller, D. Adanta, M. Xartn, D.M. Nyurnberg, E. Kuarantaa, S. Bach, P.P. Bezrukix, V.V. Yelistratov, N.K. Malinin, P.P. Svit, B.B. Kajinskiy, A.D. Obozov, E.V. Solomin, S.G. Obuxov, R.A. Zahidov, Q.R. Allayev, M.M. Muhammadiyev, B.U. Urishev, D.B. Qodirov, O.O. Bozarovlar katta hissa qo‘shgan.

Erishilgan muvaffaqiyatlarga qaramasdan, sathi o‘zgaruvchan, past bosimli suv oqimlariga moslashtirilgan, qalqib turuvchilarga ega bo‘lgan, mikro gidroelektr stansiyalarning samaradorligini oshirishda suv g‘ildiragi parraklarining suv oqimi bilan ta‘sirlashish kuchlarini kamaytirishda parraklarning optimal o‘rnatilish burchagini aniqlash, kichik aylanish tezlikli takomillashtirilgan elektr generatorlarini qo‘llash bo‘yicha tadqiqotlar yetarlicha o‘rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro muhandislik-texnologiya institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq № OT-F2-62 “Sanoat korxonasi intellektual elektr tarmog‘ini umumlashgan samaradorlik ko‘rsatkichi asosida yaratish nazariyasini rivojlantirish” mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** lokal iste‘molchilar uchun o‘zgaruvchan sathli, past bosimli suv oqimlariga moslashtirilgan mikro gidroelektr stansiyasini ishlab chiqish va parametrlarini asoslashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Buxoro viloyati irrigatsiya kanallarining suv energiyasi resurslar salohiyatini baholash va mikro gidroelektr stansiyalarni foydalanish imkoniyatlarini asoslash;

mikro gidroelektr stansiyalarni konstruktiv o‘lchamlari va energetik parametrlarining suv oqimi tezligiga bog‘liqligini tavsiflovchi matematik modelini ishlab chiqish va tadqiqot qilish;

sathi o‘zgaruvchan, past bosimli suv oqimlarda samarador ishlovchi mikro gidroelektr stansiyasining tajriba nusxasini ishlab chiqish;

mikro gidroelektr stansiyasi samaradorligini oshirishda charxpalak parraklarning suvdan chiqishdagi optimal burchagini aniqlash algoritmini ishlab chiqish;

elektr energiyasi uzluksizligi ta'minlash va ishonchliligini oshirishda mikro gidroelektr stansiyasiga takomillashtirilgan elektr generatorlarni qo'llash asoslarini ishlab chiqish;

ishlab chiqilgan mikro gidroelektr stansiyaning texnik-iqtisodiy ko'rsatgichlarini aniqlash, ekologik hamda joriy etishdagi iqtisodiy samaradorligini baholash.

**Tadqiqotning ob'yekti** sifatida past bosimli suv oqimlariga moslashtirilgan mikro gidroelektr stansiyasi va uning texnologik ish jarayoni olingan.

**Tadqiqotning predmeti** past bosimli suv oqimlarida ishlovchi mikro gidroelektr stansiyalari, charxpalak parraklarini optimal joylashgan burchaklarini aniqlash geometrik qonuniyatlari, mexanik energiyani elektr energiyaga aylantirish jarayonlaridan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida matematik modellashtirish, tajriba ma'lumotlarni qayta ishlashda matematik statistika, mexanika va elektr texnikasi nazariy asoslari, qurilma energetik parametrlarining suv oqimi o'zgarishiga bog'liqligini tajribaviy tadqiqot qilish va tajriba natijalarini qayta ishlash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

gidrodinamik qarshilik kuchlarini kamaytirish uchun suv g'ildiragining parraklari maqbul burchak ostida joylashtirilgan, induktor va yakori bir-biriga qarama-qarshi aylanadigan elektr generatorining konstruksiyasini suvning bosimi va sarfi o'zgarishini hisobga olgan holda qalqib turuvchi asos bilan takomillashtirish orqali ishlash samaradorligini 1,5...2 % gacha oshirish imkoniga ega bo'lgan gidroenergetik qurilma ishlab chiqilgan;

past bosimli suv oqimlarida ishlaydigan gidroenergetik qurilmani suv g'ildiragining geometrik va gidrodinamik tenglamalari asosida suv sarfi, suv g'ildiragining parraklari soni va qalinligi, tashqi diametri, aylanishlar soni va suv oqimining tezligini hisobga olib, suv g'ildiragining foydali ish koeffitsiyentini aniqlash imkonini beradigan matematik model takomillashtirilgan;

suv g'ildiragining optimal parametrlarini aniqlash algoritmi asosida mikro gidroelektr stansiyasi suv g'ildiragining o'zgaruvchan suv oqimlarida yuqori mexanik moment va barqaror aylanish tezligiga erishish maqsadida suv g'ildiragi parraklarining maqbul o'rnatilish burchagini aniqlash imkonini beradigan dasturiy ta'minoti ishlab chiqilgan;

past bosimli suv oqimlarda ishlaydigan mikro gidroelektr stansiyasining suv oqimi tezligi, parraklar soni, suv g'ildiragining aylanishlar soni, charxpalak parraklarini optimal joylashgan burchaklarini hisobga olgan holda quvvati, ishlab chiqaradigan elektr energiyasi miqdorini va foydali ish koeffitsientlarini aniqlash imkonini beradigan emperik bog'liqlik olingan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:** markazlashtirilgan elektr ta'minotidan uzoqda joylashgan lokal iste'molchilar uchun past bosimli suv oqimlarida samarador ishlovchi mikro gidroelektr stansiyasi ishlab chiqilgan;

takomillashgan elektr generatorning induktor va yakori bir-biriga nisbatan qarama-qarshi tomonga aylanishidan qurilma hajmining ixchamlashishi, energiya va resurs sarflarining kamayishi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlarning zamonaviy usul va o'lchash vositalaridan foydalangan holda o'tkazilganligi, tajriba natijalarini qayta ishlash va tekshirishda matematik modellashtirish usullarining qo'llanilganligi, tajribalarning tabiiy sharoitda o'tkazilganligi, nazariy va eksperimental tadqiqotlarning o'zaro adekvatligi, bajarilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan past bosimli suv oqimlariga moslashtirilgan mikro gidroelektr stansiyasi sinovlarining ijobiy natijalari va amaliyotga joriy etilganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Buxoro viloyati irrigatsiya kanallarining suv energiyasi resurslar salohiyatini baholash algoritmi asosida, past bosimli suv oqimlariga moslashtirilgan mikro gidroelektr stansiyaning parametrlari asoslanganligi hamda olingan matematik modellar va analitik bog'lanishlarni boshqa turdosh qurilmalarning parametrlarini asoslashda qo'llash mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan mikro gidroelektr stansiyasi irrigatsiya kanallarining suv energiyasi salohiyati yuqori bo'lgan hududlarda talab darajasida ishlashi, bunda yoqilg'i-energetik resurslar xarajatlarini kamaytirishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Sathi o'zgaruvchan, past bosimli suv oqimlarga moslashtirilgan mikro gidroelektr stansiyasini ishlab chiqish, parametrlarini asoslash hamda joriy etish bo'yicha olingan natijalar asosida:

kichik daryo va irrigatsiya kanallariga moslashtirilgan, past bosimli suv oqimlarda ishlovchi gidroenergetik qurilma uchun O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Intellektual mulk agentligining foydali modeliga patent olingan (№FAP01884, 07.03.2022 y.). Natijada qurilmaning past bosimli suv oqimlarda ishlash samaradorligi (FIK)ni 1,5...2 % gacha oshirish imkoniyati yaratilgan;

past bosimli suv oqimlarida samarali ishlash imkonini beradigan induktor va yakori bir-biriga nisbatan teskari aylanuvchi elektr generatorning konstruksiyasi takomillashtirilgan ("O'zbekgidroenergo" AJning 2022 yil 13 oktyabrdagi 04-35/2854-son ma'lumotnomasi). Natijada, suv oqimi tezligi 1...4 m/s bo'lgan oraliqda elektr energiyasini ishlab chiqarish 20...25% ga oshirish imkoniyati yaratilib, energiya iste'moli ishonchliligi va uzluksizligi ta'minlanishiga erishilgan;

ishlab chiqilgan mikro gidroelektr stansiyasini Buxoro viloyati Buxoro tumanidagi «Buxoro Chorvo Omad» fermer xo'jaligida joriy etilgan ("O'zbekgidroenergo" AJning 2022 yil 13 oktyabrdagi 04-35/2854-son ma'lumotnomasi). Natijada, 1,5 kW quvvatli mikro gidroelektr stansiyasi yordamida yiliga 12000 kW·h elektr energiyasi ishlab chiqarildi, ichki yonuv generatoriga nisbatan yillik iqtisodiy samaradorlik 39,6 mln. so'mni va 6,6 tonna tabiiy yoqilg'ini tejash imkoniyati yaratilgan.



**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda shu jumladan, 3 ta xalqaro va 3 ta respublika anjumanlarida muhokamadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlar 8 ta maqola, jumladan 5 tasi Respublika va 3 tasi horijiy jurnallarda nashr qilingan, O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining EHM uchun 3 ta dasturiy mahsulotiga mualliflik guvohnomasi hamda foydali modelga 1 ta patent olingan.

**Dissertatsiya tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 119 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'ekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqotlar sharhi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning "**Mikro gidroelektr stansiyalaridan foydalanishning hozirgi holati va rivojlanish tendentsiyalari**" deb nomlangan birinchi bobida jahonda va O'zbekistonda mikro gidroelektr stansiyalaridan foydalanishning hozirgi holati va rivojlanish tendentsiyalari, suv energiyasi resurslar salohiyatini baholash, past bosimli suv oqimlarda ishlovchi mikro gidroelektr stansiyalarini ishlab chiqish va samaradorligini oshirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, konstruktiv yechimlar tahlili natijalari, lokal iste'molchilarning elektr energiyasi uzluksizligini ta'minlash va ishonchliligini oshirishda mikro gidroelektr stansiyalaridan foydalanish imkoniyatlari, mikro gidroelektr stansiyalarda ko'p qutbli elektr generatorlarni qo'llash tahlillari keltirilgan. Erishilgan muvaffaqiyatlarga qaramasdan, sathi o'zgaruvchan, past bosimli suv oqimlarga moslashtirilgan, qalqib turuvchilarga ega bo'lgan, mikro gidroelektr stansiyalarning past bosimli suv oqimlarida samaradorligini oshirishda, suv g'ildiragi parraklarining suv oqimi bilan ta'sirlashish kuchlarini kamaytirishda parraklarning optimal o'rnatilish burchagini aniqlashda, kichik aylanish tezlikli takomillashtirilgan elektr generatorlarni parametrlarini asoslashda dissertatsiyaning maqsad va vazifalari shakillantirildi.

Dissertatsiyaning "**Mikro gidroelektr stansiyalarning konstruktiv va ish rejim parametrlarining nazariy tadqiqoti**" deb nomlangan ikkinchi bobida suv energiyasi resurslar salohiyatini baholash uslubiyoti, past bosimli suv oqimlarida ishlovchi mikro gidroelektr stansiyaning konstruktiv o'lchamlari va energetik

parametrlarining suv oqimi tezligi o'zgarishiga bog'liqlik matematik modellari, suv g'ildiragi parraklari suv bilan ta'sirlashish burchagining optimal qiymatini aniqlashning nazariy hisobi, suv oqimi sathi o'zgarishini inobatga olib qalqib turuvchilarning konstruktiv o'lchamlarini aniqlash usuli, mikro gidroelektr stansiyasiga qo'llanilgan mexanik uzatmalar hamda takomillashtirilgan ko'p qutbli elektr generatorning matematik ifodalari keltirilgan.

Past bosimli suv oqimlarga moslashtirilgan mikro gidroelektr stansiyasi suv g'ildiragining suv oqimi parametrlariga (tezlik, suv sarfi, zichlik, suv sathini o'zgarishi) bog'liqlik uslubiyotini keltirib o'tamiz.

Sathi o'zgaruvchan past bosimli suv oqimlariga moslashtirilgan mikro GES uchun aniqlangan talablardan kelib chiqqan holda, 1 (a) rasmda ishlab chiqilgan qalqib turuvchilarga ega bo'lgan mikro GESning umumiy ko'rinishi keltirilgan (№ FAP 01884). 1 (b)-rasmda mikro GESning suv g'ildiragining geometrik o'lchamlari, parraklar harakatiga to'sqinlik qiluvchi qarshilik kuchlari, shuningdek, suv g'ildiragining mexanik harakatining suv oqimi tezligiga bog'liqlik qonuniyatlarini keltirilgan.



1 - ponton; 2 – metall rama; 3 - opora; 4 – gorizonlar val; 5 - ilgak; 6,7 – suv g'ildiraklari; 8 - parraklar; 9,10 - silindrsimon podshipniklar; 11 – past tezlikli magnitoelektrik generator; 12 - yakor; 13,14 - induktor; 16,29 – planetar reduktor; 21,33 – flanesli ulanishlar; 22 – metall disk, 24 – shetkalar bilan kontakt xalqalar

**1-rasm. Gidroenergetik qurilmaning umumiy ko'rinishi (a), suv g'ildiragining geometrik parametrlarining suv oqimiga bog'liqligi (b)**


Suv g'ildiragi parraklarining suv bilan ta'sirlashish burchagining gidroenergetik qurilmaning konstruktiv parametrlari va parraklarning suvga botish chuqurligi bog'liqligining matematik ifodasi:

$$\begin{cases} \alpha + \beta = 90^\circ \\ \varphi + \alpha = 90^\circ \\ \alpha = 90^\circ - \beta \\ \alpha = 90^\circ - \varphi \\ \varphi = \beta \end{cases} \quad (1)$$

$$\begin{cases} x = R_a - h_t \\ \sin \alpha = \frac{x}{R_a} = \frac{R_a - h_t}{R_a} \\ \cos \beta = \sqrt{1 - \left(1 - \frac{h_t}{D_a}\right)^2} h_t \\ h_t = R_a - R_a \sin \beta \\ a = \frac{D_a - D_i}{2} \end{cases} \quad (2)$$

bu yerda,  $R_a$ - suv g'ildiragining tashqi diametri, m;  $x$  - MNL uchburchagining katet uzunligi, m;  $h_t$ - parrakning suvga botish chuqurligi, m;  $D_a$ - suv g'ildiragining tashqi diametri, m;  $D_i$ - suv g'ildiragining ichki diametri, m;  $a$ - parrakning balandligi, m.

Suv g'ildiragi parrakning geometrik joylashuvi sxemasi 2-rasmda keltirilgan.



**2-rasm. Suv g'ildiragi parraklarining geometrik joylashuvi sxemasi**

2-rasmdagi uchburchak ABC dagi  $\angle B$  dan kosinuslar teoremasiga asosan  $r_s$  ning burchak  $\beta$  ga bog'liqligini quyidagi ifoda orqali aniqlaymiz

$$\begin{cases} R_i^2 + 2R_i r_s + r_s^2 = r_s^2 + R_a^2 - 2r_s R_a \cos \beta \\ r_s = \frac{R_a^2 - R_i^2}{(R_i + R_a \cos \beta)} \end{cases} \quad (3)$$

bu yerda,  $r_s$  - hisoblash doirasi radiusi, m.

Suv g'ildiragi parrakning KB yoy uzunligini quyidagi matematik ifoda orqali aniqlaymiz:

$$L_{KB} = \frac{\pi r_s}{180^\circ} \cdot \theta, \quad (4)$$

bu yerda,  $\theta$  - ABC uchburchakning  $\angle A$  burchagi.

2-rasmdagi uchburchak ABC dan burchak  $\varphi = \beta$  dan kelib chiqib, quyidagi bog'liqliklarni keltirib chiqaramiz:

$$\begin{cases} \sin \beta = \frac{h}{r_s} \\ \sin \lambda = \frac{\sin \beta \cdot r_s}{r_s + R_i} \end{cases} \quad (5)$$

$\theta$  burchakning aylana radiusi  $r_s$  va  $\beta$  burchakka bog'liqligi quyidagi soddalashtirilgan ifodalar orqali aniqlaymiz:

$$\begin{cases} \theta = 180^\circ - (\beta + \lambda) \\ \theta = 180^\circ - \left( \beta + \arcsin \left( \frac{\sin \beta \cdot r_s}{r_s + R_i} \right) \right) \end{cases} \quad (6)$$

Suv charxpalagi parraginging KB yoy uzunligi quyidagi matematik ifoda orqali aniqlaymiz:

$$L_{KB} = \frac{\pi r_s}{180^\circ} \cdot \left[ 180^\circ - \left( \beta + \arcsin \left( \frac{\sin \beta \cdot r_s}{r_s + R_i} \right) \right) \right], \quad (7)$$

Suv charxpalagi parraginging yuzasini quyidagi formula orqali aniqlaymiz:

$$S_{parrak} = L_{KB} \cdot b, \quad (8)$$

bu yerda,  $b$  – parrak kengligi.

Suv g'ildiragining tashqi va ichki diametrlari orasidagi minimal masofa "a", tashqi diametri va suv oqimiga bog'liq bo'lgan qiymat nemis olimi Xarten Mattias tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda aniqlangan. Bunda  $Q \leq 0,5 \text{ m}^3/\text{s}$  suv oqimi bilan "a" qiymati quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$a = \frac{D_a}{5} \quad (9)$$

Suv g'ildiragining aylanma tezligi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$U = 2,33 \cdot \sqrt{H} = 2,33 \cdot \sqrt{\frac{V^2}{2 \cdot g}} \quad (10)$$

Suv g'ildiragining aylanish tezligi uning diametri va aylana tezligi bo'yicha hisoblanadi:

$$n = \frac{60 \cdot U}{D_a \cdot \pi} \quad (11)$$

Suv g'ildiragining burchak tezligi quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:

$$\omega_M = 2 \cdot \pi \cdot f = 2 \cdot \pi \cdot \frac{n}{60} = \frac{\pi \cdot n}{60} \quad (12)$$

bu yerda,  $n$  – suv g'ildiragining daqiqasiga aylanishlar soni, ayl/min;

Suv g'ildiragi parraklar sonini aniqlash formulasi quyidagicha:

$$Z = \frac{D_a \cdot \pi}{t} \quad (13)$$

bu yerda,  $t$  – parraklar orasidagi masofa, [0.2-0.35 m].

Parraklarning suvga botish chuqurligi  $h_t$ , parraklarga ta'sir etuvchi suv oqimi  $Q$ , parraklar soni  $Z$ , tashqi radius  $R$ , aylanish tezligi  $n$ , parraklarning qalinligi  $b_{sch}$  va  $B$  suv g'ildiragi parraklarining kengligi nemis olimi Dirk Nuembergning ilmiy tadqiqotida aniqlangan:

$$h_t = \left( R_a - \frac{1,05 \cdot b_{sch} \cdot Z}{2\pi} \right) - \sqrt{\left( R_a - \frac{1,05 \cdot b_{sch} \cdot Z}{2\pi} \right)^2 - \frac{Q \cdot 60}{n \cdot b \cdot \pi}}, \quad (14)$$

bu yerda:  $Z$  – parraklar soni,  $b_{sch}$  – parraklar qalinligi.

(2) folmuladagi parrakning suvga botish chuqurligi  $h_t$  va (14) ifodalarni tenglashtirib, suv oqimining sarfi qurilmaning parametrlariga bog'liqligi tenglamasi quyidagicha:

$$Q = \frac{n \cdot b \cdot \left( (\pi \cdot D_a - 1,05 \cdot b_{sch} \cdot Z) \cdot \left( \frac{D_a - D_a \cdot \sin \beta}{2} \right) - \pi \cdot \left( \frac{D_a - D_a \cdot \sin \beta}{2} \right)^2 \right)}{60}, \quad (15)$$

Suv charxpalagi hosil qiluvchi mexanik momentning konstruksiya va suv oqimi parametrlariga bog'liqlik matematik ifodasi quyidagicha:

$$M_M = \frac{N \cdot R_a \cdot k \cdot n \cdot b \cdot (V - U) \cdot [(\pi \cdot D_a - 1,05 \cdot b_{sch} \cdot Z) \cdot (R_a - R_a \cdot \sin \beta) - \pi \cdot (R_a - R_a \cdot \sin \beta)^2]}{60} \quad (16)$$

bu yerda:  $k$  – gidravlik isroflar koeffitsiyenti,  $N$  – suv bilan to‘liq ta’sirlashgan parraklar soni.

Suv charxpalagining mexanik quvvati quyidagi matematik ifoda orqali aniqlanadi:

$$P_M = M_M \cdot \omega_M \quad (17)$$

Suv g‘ildiragining foydali ish koeffitsiyenti  $\eta_M$ , parraklarga tegadigan suv sarfi  $Q$ , parraklar soni  $Z$ , tashqi diametr  $R_a$ , suv g‘ildiragining aylanish tezligi  $n$ , parraklar qalinligi  $b_{sch}$  va suv oqim tezligi  $V$  quyidagi soddalashgan matematik ifoda orqali aniqlanadi:

$$\eta_M = N \cdot R_a \cdot \omega_M \cdot k \cdot n \cdot B \cdot (V - U) \cdot \frac{(\pi \cdot D_a - 1,05 \cdot b_{sch} \cdot Z) \cdot (R_a - R_a \cdot \sin \beta) - \pi \cdot (R_a - R_a \cdot \sin \beta)^2}{30 \cdot V^3 \cdot S \cdot a} \quad (18)$$

Doimiy magnitlardan tashkil topgan uch fazali generatorning elektromagnit quvvatini hisoblash quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$P_3 = \frac{3}{2} \omega [\psi_{PM} + (L_d - L_q) i_d] i_q, \quad (19)$$

Generatorning “p” juft qutblar sonidan iborat elektromexanik momenti quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$M_3 = \frac{3}{2} p [\psi_{PM} + (L_d - L_q) i_d] i_q, \quad (20)$$

Elektr generatorining yakor va induktorining qarama-qarshi tomonga aylanishining elektromagnit tezligi quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$\omega = p \cdot (\omega_{M1} + \omega_{M2}), \quad (21)$$

bu yerda  $p$  - qutblar juftlari soni.

Dinamik modellashtirishda quyidagi ifodadan foydalanildi:


$$J \frac{d\omega_M}{dt} = M_M - M_3 - k\omega_M \quad (22)$$

bu yerda  $J$  - induktorning massa momentining inertsiyasi  $\text{kg} \cdot \text{m}^2$ ,  $M_m$  va  $M_e$  - generatorning mexanik va elektromagnit momentlari,  $N \cdot \text{m}$ ;  $k$  - ishqalanish koeffitsiyenti,  $\omega_m$  - generatorning burchak tezligi,  $\text{rad/s}$ .


Dissertasiyaning “**Mikro gidroelektr stansiyasini ishlab chiqish, analitik va eksperimental tadqiqoti**” deb nomlangan uchinchi bobida Buxoro viloyatidagi irrigasiya kanallarining suv energiyasi resurslar salohiyatini baholash, past bosimli suv oqimlariga moslashtirilgan mikro gidroelektr stansiyasini ishlab chiqish va konstruktiv maqbul o‘lchamlarini aniqlash hamda takomillashtirilgan ko‘p qutbli elektr generator chiqish parametrlarining suv oqimi tezligiga bog‘liqlik analitik va eksperimental tadqiqot natijalari keltirilgan.

3-rasmda Amu-Buxoro mashina kanali boshqarmasidan olingan chiziqli sxema yordamida qurilgan Buxoro viloyatining magistral va xo‘jaliklararo kanallarining sxemasi hamda “Google Earth Pro” ilovasi asosida sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlaridan foydalangan holda olingan ma’lumotlar keltirilgan.

4-rasmda “Shezi” koeffitsiyentini aniqlash orqali trapetsiyasimon sug‘orish kanallarining gidroenergetik resurslar salohiyatini baholashning ishlab chiqilgan algoritmi ko‘rsatilgan.



3-rasm. Buxoro viloyati magistral va xo'jaliklararo kanallar sxemasi




4-rasm. Sug'orish kanallarining gidroenergetik resurslar salohiyati baholash algoritmi

Amu-Buxoro mashina kanalining sug'orish tizimi uchun yalpi gidroenergetik salohiyatini baholash, unga ko'ra 1-jadvalda kanal tubi bo'ylab eni, suv oqimi tezligi, ko'ndalang kesimi va yalpi gidroenergetik resurslar salohiyatining hisoblangan qiymatlari keltirilgan.

1-jadval  
Yalpi gidroenergetik resurslar salohiyatini baholash natijalari

Kanal nomi	Amu-Qorako'l kanali	ABK-1	ABK-2	Amu-Buxoro kanal	Jondor kanali	Qorovulbozor kanali	ABK-1 (2)	ABK-2 (2)	To'dako'l kanali
Asosi bo'ylab kanal kengligi, (m)	19,5	34,1	36,5	43	14,4	5,6	18,9	25,1	11,5
Oqim tezligi, m/s	0,61	0,76	0,78	0,83	0,57	0,4	0,66	0,75	0,55
Kanal kesimi, m <sup>2</sup>	85,5	184,4	200,1	211,6	63,8	21,5	93,2	158,3	55,7
Quvvat, MVt	0,95	4,65	5,25	7,24	1,46	0,14	0,83	2,25	0,08

5 (a) va 5 (b) rasmlarda Matlab dasturida olingan sug'orish kanallari uchun suv sarfi, suv oqimi energiyasining g'adir-budirlik koeffitsientiga bog'liqligi grafiklari keltirilgan. ABK-1 va ABK-2 sug'orish kanallarining suv oqimining energiyasi mos ravishda 58 GW·h va 54 GW·h, suv sarfi esa mos ravishda 220 m<sup>3</sup>/s va 190 m<sup>3</sup>/s ni tashkil qilgan.



**5-rasm. Suv sarfi, suv oqimi energiyasining sug'orish kanalining g'adir-budirlik koeffitsientiga bog'liqligi grafiklari**

Mikro gidroelektr stansiyaning maksimal samaradorligi (FIK)ga erishish optimallik mezoni sifatida ishlatiladi:

$$\eta(\beta, Q) = \frac{P_M}{P_K} \rightarrow \max \quad (23)$$

Quyidagi shartlar qabul qilindi:


$$\left\{ \begin{array}{l} 1 \leq V \leq 4 \text{ m/s} \\ 0^\circ \leq \beta \leq 90^\circ \text{ grad} \\ a \geq h_t, D_a = 1\text{m}, D_{in} = 0,6 \text{ m} \\ Q \leq 0,5 \rightarrow a = \frac{D_a}{6} \\ 0,5 \leq Q \leq 1 \rightarrow a = \frac{D_a}{5} \\ Q \geq 1 \rightarrow a = \frac{D_a}{4} \end{array} \right.$$

6-rasmda suv g'ildiragining optimal parametrlarini aniqlash uchun ishlab chiqilgan algoritmni keltirilgan. Ushbu algoritm parraklarning suv bilan ta'sirlashish optimal burchagini, parraklar sonini, suv sarfini, mexanik quvvat, kinetik quvvat va suv g'ildiragining foydali ish koeffitsientini aniqlash imkonini beradi.


7-rasmda parraklarning suvga botirish chuqurligi  $h$  parrakning suv bilan ta'sirlashish  $\beta$  burchagining bog'liqligi keltirilgan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, parrakning suv bilan ta'sirlashish burchagi  $\beta=37^\circ$  bo'lganida, parrakning suvga botish chuqurligi qiymati  $h_t=0,2$  m ga teng bo'lib, uning maksimal qiymati hisoblanadi.

8-rasmda suv g'ildiragi  $n$  aylanish tezligining suv oqimi  $V$  tezligiga bog'liqligi keltirilgan. 10-rasmda keltirilgan egri chiziq suv oqimi tezligining oshishi bilan suv g'ildiragining aylanish tezligini ortishini ko'rsatadi, unga ko'ra suv oqimi tezligi  $V = 4$  m/s bo'lganda, suv g'ildiragining aylanish tezligi 40 ayl/min ni tashkil qiladi.






6-rasm. Suv g'ildiragining optimal parametrlarini aniqlash algoritmi




7-rasm. Parraklarning suvga botirish chuqurligi h\_t parrakning suv bilan ta'sirlashish burchagining bog'liqligi




8-rasm. Suv g'ildiragining aylanish tezligining suv oqimi tezligiga bog'liqligi grafigi

9-rasmda suv sarfi Q ning parraklar suv bilan ta'sirlashish burchagi  $\beta$  bog'liqligini tavsiflovchi egri chiziqlar keltirilgan. Aniqlanishicha, suv oqimi tezligi 4 m/s va parraklar suv bilan ta'sirlashish burchagi  $\beta=37^\circ$  bo'lganda, suv oqimining sarfi qiymati maksimal bo'lib,  $Q=0,4 \text{ m}^3/\text{s}$  ni tashkil qiladi.

10-rasmda parrakning suv bilan ta'sirlashish burchagiga mexanik momentning bog'liqligi graflarini ko'rsatadigan egri chiziqlar keltirilgan. Parraklar suv bilan ta'sirlashish burchagi  $\beta=37^\circ$  bo'lganda, mexanik momentning maksimal qiymatiga erishilganligi aniqlandi.



9-rasm. Suv oqimi tezligining parrakning suv bilan ta'sirlashish burchagiga bog'liqligi graflari




10-rasm. Mexanik momentning tezligining parrakning suv bilan ta'sirlashish burchagiga bog'liqligi graflari




11-rasmda mexanik quvvat  $P_m$  ning parraklar suv bilan ta'sirlashish burchagi  $\beta$  bog'liqligini tavsiflovchi egri chiziqlar keltirilgan. Nazariy hisob-kitoblarga asoslanib, parraklar suv bilan ta'sirlashish burchagi  $\beta=37^\circ$  ga teng bo'lganida mexanik quvvat maksimal qiymatga erishib 1580 W ni tashkil etdi.

12-rasmda suv g'ildiragi foydali ish koeffitsiyentining parraklar suv bilan ta'sirlashish burchagi  $\beta$  bog'liqligini tavsiflovchi egri chiziqlar keltirilgan. Aniqlandiki, parraklar suv bilan ta'sirlashish burchagi  $\beta=37^\circ$  ga teng bo'lganda suv g'ildiragining foydali ish koeffitsiyenti 32% ni tashkil qiladi.




**11-rasm. Mexanik quvvatning parraklar suv bilan ta'sirlashish burchagi bog'liqligi grafiklari**



**12-rasm. Foydali ish koeffitsiyentining parraklar suv bilan ta'sirlashish burchagi bog'liqligi grafiklari**

Past bosimli suv oqimlarida gidroenergetik qurilmalarining samaradorligini oshirish uchun yakor va induktori qarama-qarshi tomonga aylanuvchi, doimiy magnitlardan tashkil topgan past tezlikli elektr generatori ishlab chiqildi.


13 (a) rasmda elektr generatorning uch o'lchamli ko'rinishi, 13 (b) generator yakori chulg'aming ulanish usuli, 13 (v) generator induktori magnitlarning joylashuvi keltirilgan. Elektr generatorning har bir fazasi 4 ta ketma-ket ulangan chulg'amdan tashkil topib yulduzcha usulida ulangan. Elektr generator induktorida 16 juft qutb doimiy magnitlar mavjud.



a – elektr generatorning umumiy ko'rinishi; b – yakor chulg'aming ulanish sxemasi; v – elektr generator induktorining tashqi ko'rinishi


**13-rasm. Elektr generator tuzilishi**

14-rasmda Matlab/Simulink paketida ishlab chiqilgan yakor va induktori qarama-qarshi tomonga aylanuvchi elektr generatorning imitatsion modeli keltirilgan.



14-rasm. Matlab/Simulink paketida qurilgan elektr generatorning imitatsion modeli

15-rasmda Matlab/Simulink dasturi yordamida olingan suv g'ildiragining dinamik rejimdagi chiqish parametrlarining 1...4 m/s oralig'ida suv oqimi tezligining o'zgarishiga bog'liqligi grafiklari keltirilgan.




a) elektromexanik moment; b) elektromagnit quvvat

15-rasm. Dinamik rejimdagi suv g'ildiragining chiqish parametrlarining suv oqimi tezligiga bog'liqligi grafiklari

16 (a) - rasmda ikkita elektr generatorining mexanik momenti qiymatlarini taqqoslaydigan grafikni ko'rsatadi. Grafikdan ko'rinib turibdiki, yakori va induktori teskari aylanadigan elektr generatorining elektromagnit momenti qo'zg'almas yakor holatiga nisbatan 20% ga oshgan.

16 (b) - rasmda ikkita generatorning elektromagnit quvvati qiymatlarini taqqoslaydigan grafikni keltirilgan. Shuningdek, yakor va induktori teskari

aylanadigan elektr generatorining elektromagnit quvvati qiymatlarini qo'zg'almas yakor holati bilan solishtirganda 1090 W dan 1530 W gacha oshganligi aniqlandi. Ushbu natijalar 400 ayl/min bo'lgan yakor va induktor aylanish tezligi bilan olingan.



**16-rasm. Dinamik rejimda ikkita elektr generatorining chiqish parametrlarining qiyosiy grafiklari**

17 (a) - rasmda GR-21-M1 gidrometrik vertushka yordamida Quyimozor kanalida suv oqimi tezligini o'lchash jarayoni keltirilgan. 17 (b) - rasmda past bosimli suv oqimlariga moslashtirilgan ishlab chiqilgan mikro gidroelektr stansiyaning tajriba jarayoni keltirilgan.



a)



b)

a) GR-21-M1 gidrometrik vertushka yordamida suv oqimi tezligini o'lchash, b) ishlab chiqilgan mikro gidroelektr stansiya tajriba sinovi

**17-rasm. Quyimozor kanalida olib borilgan eksperimental tadqiqotlar jarayoni**

Foydali ish koeffitsientini aniqlaydigan ko'pfaktorli regressiya tenglamasi quyidagi shaklga ega:

$$Y = 0,7875 - 0,01 \cdot X_1 + 0,00096 \cdot X_2 - 0,77 \cdot X_3 - 0,00032 \cdot X_4 - 26,51 \cdot X_5 \quad (24)$$


bunda,  $X_1$ - suv oqimi tezligi,  $X_2$ - suv g'ildiragining aylanish tezligi,  $X_3$ - parrakning suv bilan ta'sirlashish burchagi,  $X_4$ - parraklar soni,  $X_5$ -parrak qalinligi. (24) ifoda uchun quyidagi dastlabki shartlar qabul qilinadi:

$$1 \leq V_B \leq 4 \text{ m/s}; 0^0 \leq \beta \leq 90^0; Q \leq 0,5 \text{ m}^3/\text{s}; Z = 16, b_{sch} = 0,002 \text{ m}.$$

Regressiya tenglamalarining ahamiyatligi Fisherning F-kriteriyasi yordamida baholandi. Hisoblab chiqilgan qiymatlarni jadvaldagi qiymatlar bilan taqqoslaymiz.

Ahamiyatlik darajasi 0,05 ga va erkinlik darajalarining  $\gamma_1 = 84$ ,  $\gamma_2 = 79$  sonida Fisher F-mezonining jadvaldagi qiymat  $F_{jad} = 1,45$  hisoblab chiqilgan qiymatdan  $F_{his} = 0,91$  kattaligi aniqlandi. Shunday qilib, biz olgan model uchun Fisherning adekvatlik mezonini bajarildi. Hisoblashning nisbiy xatoligi  $\pm 8\%$  ga teng.

18-rasmda eksperimental ma'lumotlarni qayta ishlash natijalari keltirilgan, bunga ko'ra 18 (a) - rasmda modellashtirish natijalari va eksperimental ma'lumotlarning qiyosiy tahlili uchun egri chizig'i, 18 (b) - rasmda regressiya tenglamasi yordamida olingan natijalar ko'rsatilgan.



a) - modellashtirish natijalari va eksperimental ma'lumotlarning qiyosiy tahlili; b) - regressiya tenglamasi yordamida olingan natijalar

### 18-rasm. Tajriba natijalarini qayta ishlash

Ikki namunadagi o'rtacha qiymatlarning muvofiqligini tekshirish, gidroenergetik qurilmaning foydali ish koeffitsiyentining nazariy va eksperimental natijalarini solishtirish uchun Styudent mezonini ham qo'llanildi. Hisoblangan qiymatlarni jadvaldagi qiymatlar bilan taqqoslaymiz. Erkinlik darajasining hisoblangan qiymati  $k=166$  bo'lganda, Styudentning hisoblangan qiymati  $t_{his}=1,36$ , ya'ni  $t_{jad}=1,98$  jadval qiymatidan kichik ekanligi aniqlandi. Bu yerda,  $t_{his} < t_{jad}$ , shuning uchun bog'liq. Nisbiy hisoblash xatosi  $\pm 5\%$  ni tashkil qiladi.

Dissertatsiyaning "**Mikro gidroelektr stansiyasining texnik-iqtisodiy samaradorligini baholash**" deb nomlangan to'rtinchi bobida lokal iste'molchilarning yillik elektr energiyasi iste'mol ko'rsatgichlari, ishlab chiqilgan qurilmaning texnik-iqtisodiy ko'rsatgichlarini aniqlash, iqtisodiy hamda ekologik samaradorlikni baholash natijalari keltirilgan.

Past bosimli suv oqimlarida samarali ishlaydigan ishonchli, arzon GESlardan foydalanish, o'z navbatida, mahalliy iste'molchilarni elektr energiyasi bilan ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Nazariy va eksperimental tadqiqotlar natijalariga ko'ra, ishlab chiqilgan mikro gidroelektr stansiyasi suv oqimi tezligi 1...4 m/s bo'lgan past bosimli suv oqimida samarali ishlashi aniqlangan, bunga ko'ra suv g'ildiragining tashqi diametri  $D_a=1$  m, ichki diametri  $D_i=0,6$  m, parraklar soni  $z=16$ , suv g'ildiragi parraklari suv bilan ta'sirlashish burchagi  $\beta=37^\circ$ .

**2-jadval****Ishlab chiqilgan mikro giroelektr stansiyaning texnik tavsiflari**

Nominal quvvat, W	1500
Suv oqimi tezligi oralig'ida ishlash, m/s	1...4
Suv g'ildiragining aylanish tezligi, ayl/min	30...400
Foydali ish koeffitsienti, %	32
Kuchlanish, V	220
Tok, A	1...4
Suv g'ildiragining diametri, m	1
Qurilma kengligi, m	2
Parrakning yuzasi, m <sup>2</sup>	0,2
Massa, kg	80
Pontonlarning yuk ko'tarish qobiliyati, kg	150
Parraklar materiali	po'lat
Suv g'ildiragi materiali	metall
Pontonlar materiali	po'lat

3-jadvalda ishlab chiqilgan mikro gidroelektr stansiyaning texnik xususiyatlari va uning texnik mohiyati bo'yicha eng yaqin analog bilan taqqoslangan ma'lumotlar keltirilgan. Taqqoslash natijalariga ko'ra, ishlab chiqilgan mikro gidroelektr stansiyaning samaradorligi past bosimli suv oqimlarida ishlaganda yaqin analogga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi.

**3-jadval****Ishlab chiqilgan mikro gidroelektr stansiyaning texnik xususiyatlarini eng yaqin analog bilan taqqoslash**


No	Texnik xususiyatlari	Ishlab chiqilgan mikro GES	Yaqin analog
1.	Nominal quvvat, W	1500	1500
2.	Suv oqimi tezligi oralig'ida ishlash, m/s	1-4	1-4
3.	Suv g'ildiragining aylanish tezligi, ayl/min	30-400	500
4.	Foydali ish koeffitsienti, %	32	30
5.	Kuchlanish, V	220 (~)	48 (-)
6.	Tok, A	3,5	30
7.	Suv g'ildiragining diametri, m	1	1,5
8.	Qurilma kengligi, m	1,2	1,2

Mikro gidroelektr stansiyalar orqali suv oqimining mexanik energiyasini aylantirish jarayonida ishlab chiqarilgan elektr energiyasi sifatining asosiy ko'rsatkichi kuchlanish va chastota qiymatlari hisoblanadi. Mikro gidroelektr stansiyaning elektr generatorining chiqish energetik parametrlarini



barqarorlashtirish va rostlash uchun boshqaruv tizimidan foydalanish kerak.

19-rasmda suv oqimining mexanik energiyasi hisobiga aylanadigan suv g'ildiragi, elektr generatori, 220 V kuchlanish va 50 Gs chastotali yuqori sifatli elektr energiyasini olish imkonini beruvchi boshqaruv tizimidan iborat energiya ishlab chiqarish sxemasi keltirilgan.



**19-rasm. Elektr energiya ishlab chiqarish sxemasi**

4-jadvalda ishlab chiqilgan mikro gidroelektr stansiyaning, benzinli generator va quyosh elektr stansiyalariga nisbatan joriy etishdagi iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari taqqoslash natijalari keltirilgan.

**4-jadval**

**Iqtisodiy samaradorlikni taqqoslash natijalari**

Ko'rsatkichlar	Ishlab chiqilgan mikro gidroelektr stansiyasi	Benzinli generator	Quyosh elektr stansiyasi
O'rnatilgan quvvat, kW	1,5	2,2	6,2
Yillik ishlab chiqarilgan elektr energiyasining o'rtacha miqdori, k·W/h	12000	12000	12000
Qurilmaning balans narxi, mln. so'm	10	5	87,8
Amortizasiya ajratmalari, mln. so'm	0,29	0,15	0,4
Joriy ta'mirlash xarajatlari, mln. so'm	0,3	0,15	1,35
Yoqilg'i narxi, mln. so'm	-	39,6	-
Ekspluatatsion xarajatlar, mln. so'm	0,59	39,9	1,75
Ishlab chiqarilgan 1 kVt·s elektr energiyasining narxi, so'm	50	3325	150

Ishlab chiqilgan 1,5 kW quvvatli mikro gidroelektr stansiyasi yiliga taxminan, o'rtacha 6,6 tonnaga yaqin benzin tejalishi va 14,64 tonnadan ortiq karbonat angidrid ( $\text{CO}_2$ ) gazi atmosferaga chiqarib yuborishining oldi olinganligi aniqlandi.

## XULOSA

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha olib borilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Buxoro viloyati irrigatsiya kanallarining suv energiyasi resurslar salohiyatini ishonchli baholash algoritmi ishlab chiqilib, EHM dasturi uchun guvohnoma olingan. Bunda, o'zgaruvchan sathli, past bosimli irrigatsiya kanallarining suv oqimi tezligi 1...4 m/s oraliqda o'zgarishi, yalpi gidroenergetik salohiyati 202,4 GW·h tashkil qilishi aniqlangan.

2. Suv oqimini yo'naltiruvchi qalqib turuvchilarga ega bo'lgan, suv g'ildiragi parraklari suvdan chiqayotganda ta'sir kuchini kamaytirishda parraklari maqbul burchak ostida joylashtirilgan, induktor va yakori bir-biriga nisbatan teskari aylanadigan takomillashtirilgan elektr generatorli mikro gidroelektr stansiyasi ishlab chiqilgan (FAP 01884). Natijada, past bosimli suv oqimlarda ishlash samaradorligi (FIK)ni 1,5...2 % gacha oshirish imkoniyati yaratilgan.

3. Past bosimli suv oqimlarga moslashtirilgan mikro gidroelektr stansiyaning foydali ish koeffitsienti  $\eta$  ni aniqlashda suv oqimining tezligi  $V$ , suv g'ildiragining aylanishlar soni  $n$ , suv g'ildiragining parraklar soni  $Z$ , suv oqimi sarfi  $Q$ , parraklarga ta'sir qiluvchi umumiy kuch  $F_{um}$ , suv g'ildiragining burilish burchagiga  $\omega_m$  va parraklarning suv bilan ta'sirlashish burchagi  $\beta$  bog'liq holda aniqlash imkonini beradigan analitik ifodalar olingan.

4. Parraklarning suv yuzasi bilan tutashish burchagi  $\beta$ , oqimning parraklar yuzasiga zarbsiz kirishini ta'minlash, quyi bef yuzasi bilan ta'sirlashganda hamda chiqish uchun qulay bo'lgan  $37^\circ$  ga teng qilib olindi.

5. Mikro gidroelektr stansiyasi tashqi diametri  $D_a = 1\text{ m}$  va parraklarning suvga botish chuqurligi  $h_t = 0,2\text{ m}$  ega suv charxpalagining parraklariga suv oqimining ta'sir kuchini oshirish va parrak suvdan chiqayotganda esa ta'sir kuchini kamaytirish maqsadida parraklar suv bilan ta'sirlashish burchagining optimal qiymati  $\beta = 37^\circ$ , suv oqimining tezligi  $V = 1...4\text{ m/s}$ , suv sarfi  $Q = 0,1...0,4\text{ m}^3/\text{c}$  bo'lganda qurilmaning foydali ish koeffitsienti maksimal  $\eta = 32\%$  gacha erishish shartlari aniqlangan.

6. Ishlab chiqilgan mikro gidroelektr stansiyasiga induktor va yakori bir-biriga nisbatan teskari aylanadigan kichik tezlikli elektr generator qo'llanilishi hisobiga, past bosimli suv oqimlarda elektr energiyasini ishlab chiqarish hajmi 20...25% gacha oshirish imkoni yaratilgan.

7. Quvvati 1,5 kW bo'lgan mikro gidroelektr stansiyaning joriy etishdagi iqtisodiy samaradorligi «Sof diskont» usulidan foydalanib baholangan. Bunda elektr tarmoqqa nisbatdan sof joriy qiymat 10,2 mln.so'mni, statik qoplash muddati 3,39 yil va dinamik qoplash muddati 4,19 yil ekanligi aniqlandi.



**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.09.2020.Т.111.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРШИНСКОМ ИНЖЕНЕРНО-  
ЭКОНОМИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

---

**БУХАРСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ**

**МАМЕДОВ РАСУЛ АКИФ-ОГЛИ**

**РАЗРАБОТКА ЭФФЕКТИВНОЙ МИКРОГИДРОЭЛЕКТРОСТАНЦИИ,  
АДАПТИРОВАННОЙ К НИЗКОНАПОРНЫМ ВОДОТОКАМ**

**05.05.06 – Энергоустановки на основе возобновляемых видов энергии**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Карши – 2023**

Тема диссертации на соискание степени доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за № В2022.3.PhD/Т1636.

Диссертация выполнена в Бухарском инженерно-технологическом институте.  
Автореферат диссертации написан на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)), размещен на веб-странице Научного совета ([www.qmii.uz](http://www.qmii.uz)) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научный руководитель:** Садуллаев Насулло Нематович  
доктор технических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** Тоиров Олимжон Зувурович  
доктор технических наук, профессор

Уришев Бобараим  
доктор технических наук, профессор

**Ведущая организация:** Национальный исследовательский университет «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства»

Защита диссертации состоится «13» 07 2023 года в 9<sup>30</sup> часов на заседании Научного совета PhD.03/30.09.2020.Т.111.03 при Каршинском инженерно-экономическом институте. (Адрес: 180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, 225. Тел: (99875) 224-02-89, факс: (99875) 224-13-95, e-mail: [kiei\\_info@edu.uz](mailto:kiei_info@edu.uz).)

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Каршинского инженерно-экономического института (зарегистрировано № 43). (Адрес: 180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, 225. Тел: (99875) 224-02-89, факс: (99875) 224-13-95, e-mail: [kiei\\_info@edu.uz](mailto:kiei_info@edu.uz).)

Автореферат диссертации разослан «26» 06 2023 года.  
(реестр протокола рассылки № 17 от «26» 06 2023 года).

  
Г.Н. Узоков  
Председатель научного совета по присуждению  
ученых степеней, д.т.н., профессор

Х.А. Давлонов  
Ученый секретарь научного совета по  
присуждению ученых степеней, д.ф.т.н., доцент

Б. Уришев  
Председатель научного семинара при  
научном совете по присуждению  
ученых степеней, д.т.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ(аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мире использование энергетических установок на основе возобновляемых источников энергии в сфере энергетики занимает одно из ведущих мест по повышению надежности и бесперебойности электроснабжения локальных потребителей малой мощности, расположенных вдали от централизованного электроснабжения. «В стратегии развития энергетики Евросоюза планируется увеличение доли возобновляемых источников энергии с 20% до 32% в период с 2020 по 2030 год<sup>1</sup>, в частности увеличение установленной мощности малых ГЭС до 171 ГВт<sup>2</sup>». В связи с этим, разработка и внедрение в практику микрогидроэлектростанций, адаптированных к низконапорным водотокам, имеет важное значение.

В мире ведутся научно-исследовательские работы, направленные на разработку микрогидроэлектростанций, адаптированных к низконапорным водотокам, повышения их эффективности, а также обоснование энергетических, гидрологических и конструктивных параметров. В связи с этим особое внимание уделяется разработке микрогидроэлектростанций, адаптированных к низконапорным малым рекам и оросительным каналам, моделированию конструктивных параметров и параметров режима работы, разработке алгоритмов определения оптимальных параметров гидроэнергетических установок для увеличения возможностей использования энергии воды, обоснованию их основных энергетических параметров и внедрению на практике.

